



# O‘ZBEKISTON SUG‘URTA BOZORI

VOL. 3 ISS: 2 (2026)

INSURANCE MARKET OF UZBEKISTAN СТРАХОВОЙ РЫНОК УЗБЕКИСТАНА

INSURANCE



№	MUNDARIJA	Page
1.	<b>QISHLOQ XO'JALIGI SUG'URTASIDA AKTUAR HISOBLARNI QULLASH VA RIVOSHLANTIRISH MASALALARI</b> <i>Nurullaev Abdulaziz Sirojiddinovich</i>	5
2.	<b>SUG'URTA KOMPANIYALARI MOLIYAVIY XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHDA XORIJ TAJRIBASI</b> <i>Nosirov Jasur Tursunpulotovich</i>	9
3.	<b>ESG TAMOYILLARI ASOSIDA SUG'URTA XIZMATLARINI RIVOJLANTIRISH</b> <i>Yuldashev Obiddin Toshmurzayevich, Yusupov Akbar Haydarovich</i>	14
4.	<b>SUG'URTA SOHASIDA INNOVATSION MARKETING VA RAQAMLI REKLAMA STRATEGIYALARINI JORIY ETISH YO'NALISHLARI</b> <i>Yuldashev Obiddin Toshmurzayevich, Raxmonberganov Surojbek Uktamboy o'g'li</i>	18
5.	<b>MIJOZLAR QAMROVINI OSHIRISH UCHUN SUG'URTA KOMPANIYALARIDA TIZIMLI MARKETING STRATEGIYALARINI AMALGA OSHIRISH</b> <i>Raxmonberganov Surojbek Uktamboy o'g'li</i>	21
6.	<b>O'ZBEKISTON SUG'URTA TASHKILOTLARI FAOLIYATIDA KORPORATIV BOSHQARUV TIZIMINING HOLATI: MAVJUD MUAMMOLAR VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI</b> <i>Xasanov Farrux Ravshanovich</i>	25
7.	<b>PENSIYA SUG'URTASINI AMALIYOTGA JORIY ETISHNING ZARURIYATI VA DOLZARBLIGI</b> <i>Yo'ldoshova Aziza Muzaffar qizi</i>	28
8.	<b>BANK XIZMATLARINI SUG'URTALASHNING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI</b> <i>Tog'ayniyazov Shohzodbek Ural o'g'li</i>	30
9.	<b>O'ZBEKISTON SUG'URTA BOZORIDA KOMPANIYALARNING MOLIYAVIY KO'RSATKICHLARI DINAMIKASI</b> <i>Iminova Nurjahon Qodirjon qizi</i>	34
10.	<b>QISHLOQ XO'JALIGIDA SUG'URTA FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISH</b> <i>Djumayev Jonibek O'rinovich</i>	38
11.	<b>СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ПЕРЕСТРАХОВОЧНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ В УЗБЕКИСТАНЕ В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВОЙ ТРАНСФОРМАЦИИ СТРАХОВОГО СЕКТОРА</b> <i>Муминова Ансора Улдузбек кизи</i>	42
12.	<b>СОВРЕМЕННЫЕ ДРАЙВЕРЫ И НАПРАВЛЕНИЯ РАЗВИТИЯ КОРПОРАТИВНОГО УПРАВЛЕНИЯ В СТРАХОВЫХ ОРГАНИЗАЦИЯХ</b> <i>Жиянова Наргиза Эсанбоевна, Зохидова Диёра Улдузбек кизи</i>	45
13.	<b>O'ZBEKISTONDA QISHLOQ XO'JALIGI SUG'URTASI BOZORINI RIVOJLANTIRISHNING INSTITUTSIONAL MEXANIZMLARI</b> <i>Madiyev Abbas Nosirovich</i>	50
14.	<b>QISHLOQ XO'JALIGI RISKLARINING XUSUSIYATLARI VA ULARNI ILMIY TASNIFLASH METODOLOGIYASI</b> <i>Qo'ldoshev Qamariddin Mansurovich</i>	53
15.	<b>O'ZBEKISTONDA SUG'URTA TASHKILOTLARI TO'LOV QOBILIYATINI TA'MINLASH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI</b> <i>Xattabov Murodulla Batirovich</i>	56
16.	<b>KORXONALAR SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA MOLIYAVIY BOSHQARUVNING AHAMIYATI</b> <i>Muratova Saodat Igamnazar qizi</i>	59
17.	<b>TO'QIMACHILIK SANOATI KORXONALARI MOLIYAVIY BARQARORLIGINI TA'MINLASH MASALALARI</b> <i>E.I.Ergashev, Qarayev Anvar Botirovich</i>	63
18.	<b>O'ZBEKISTONDA ISLOM MOLIYASINI RIVOJLANTIRISHNING INSTITUTSIONAL VA IQTISODIY MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI</b> <i>Kuldashv Jahongir Qamariddinovich</i>	67
19.	<b>BANK TIZIMI BARQARORLIGI IQTISODIY RIVOJLANISH GAROVIDIR</b> <i>Nazarov Qilich Xolmuradovich, Toyirov Yunus Alamovich</i>	71
20.	<b>MILLIY IQTISODIYOTNI KREDITLASHDA TIJORAT BANKLARINING ROLI</b> <i>Nazarov Qilich Xolmuradovich, Toyirov Yunus Alamovich</i>	73
21.	<b>A SYSTEM OF INDICATORS FOR ENSURING THE ECONOMIC SECURITY OF COMMERCIAL BANKS UNDER INCREASING SYSTEMIC RISK</b> <i>Malikova Dilrabo Muminovna</i>	76

22.	<b>IJTIMOY-IQTISODIY RIVOJLANISHDA HUDUDIY MARKETINGNING FUNKSIONAL O'RNI VA AHAMIYATI</b> <i>Mukhammadieva Nodira</i>	79
23.	<b>XIZMAT KO'RSATISH KORXONALARIDA INSON RESURSLARIGA QILINGAN XARAJATLAR SAMARADORLIGINI BAHOLASH METODOLOGIYASI</b> <i>Usmanova Nigina Marupovna</i>	84
24.	<b>НАЛОГОВАЯ РЕФОРМА РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН КАК ФАКТОР РОСТА СПРОСА НА УСЛУГИ БУХГАЛТЕРСКОГО УЧЕТА СРЕДИ МАЛОГО БИЗНЕСА</b> <i>Холбеков Расул Олимович</i>	88
25.	<b>O'ZBEKISTON TASHQI MEHNAT MIGRATSIYASI: IQTISODIY TA'SIRLAR, INSON KAPITALI VA REINTEGRATSIYA MUAMMOLARI</b> <i>Ismatova Shoxsanam Abdulaziz qizi</i>	92
26.	<b>O'ZBEKISTONDA AHOLI BANDLIGINI TA'MINLASHNING KONTSEPTUAL ASOSLARI</b> <i>Berdibayev Fayzulla Zariybayevich</i>	95
27.	<b>ASOSIY KAPITALGA O'ZLASHTIRILGAN INVESTITSIYALAR UZOQ VAQT BARQAROR FOYDA KELISHI KAFOLATI</b> <i>Jomolov Muzaffar Mirzoxitovich</i>	98
28.	<b>SUG'URTA KAPITALIDAN INVESTITSIYA SIFATIDA FOYDALANISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH VA BAHOLASH (DEA MODELI ASOSIDA) YO'LLARI</b> <i>Kenjayev Ilhom G'iyozovich</i>	101
29.	<b>RAQAMLI TA'LIM TEXNOLOGIYALARI ORQALI INDIVIDUAL SPORTCHILARNI TAYYORLASH TIZIMI BOSHQARUVI IQTISODIY SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING KONSEPTUAL ASOSLARI TAHLILI</b> <i>Junaydullayev Mels Asliddin o'g'li</i>	105
30.	<b>TOSHKENT SHAHRIDA ANHOR KANALI BO'YLAB OSMA KABINALI JAMOAT TRANSPORT TIZIMINI YARATISH KONSEPSIYASI</b> <i>Xamdamov Shoh-Jaxon Raxmat o'g'li, Kamolidinov Muhibillo Shokirjon o'g'li</i>	109
31.	<b>SANOAT KORXONALARIDA ISHLAB CHIQRISH QUVVATLARIDAN FOYDALANISHNI ME'YORLASHTIRISHNING USLUBIY JIHLARI</b> <i>Ergashev Abrorbek Raxmatulla o'g'li</i>	112
32.	<b>METROLOGIK FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHNING ILMIY-AMALIY JIHLARI</b> <i>Rakhmatillaev Nodirjon Yo'ldashvaevich</i>	114
33.	<b>AN INTEGRATED RISK-BASED MODEL FOR ASSESSING THE EXTERNAL ENVIRONMENT OF SMALL ENTERPRISES IN UZBEKISTAN: IMPLICATIONS FOR THE INSURANCE MARKET</b> <i>Djumabayeva Dilobar Asatillayevna</i>	116
34.	<b>UY-JOY NARXLARINI HISOBLASHDA HEDONIK REGRESSIYA FORMULASIDAN FOYDALANISHNING METODOLOGIK ASOSLARI</b> <i>Tog'ayeva Dildora Akramovna</i>	120
35.	<b>СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ НАЛОГОВОЙ СИСТЕМЫ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН НА ОСНОВЕ КЛАССИЧЕСКИХ И СОВРЕМЕННЫХ ПРИНЦИПОВ НАЛОГООБЛОЖЕНИЯ</b> <i>Ахоров Зариф Орипович</i>	123
36.	<b>RAQAMLI SOLIQ TIZIMLARINI JORIY ETISH VA ULARNING IQTISODIY TA'SIRI</b> <i>Tuychiyev Sherxon Shuxrat o'g'li, Xubbimov Sherzod Jamshidovich</i>	126
37.	<b>SOLIQQA TORTISHNING MAKROIQTISODIY KO'RSATKICHLARGA TA'SIRI: EMPIRIK TAHLILLAR ASOSIDA</b> <i>Toshnazarova Lola Shuxratillayevna, Karimov Mardon Akram o'g'li</i>	129
38.	<b>TURIZMDA INNOVATSIYALARNING HAYOTIYLIK SIKLI VA ULARNING BOZORGA CHIQUISH BOSQICHLARI</b> <i>Erkaboyeva Jasmina Safarali qizi</i>	133
39.	<b>RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA QISHLOQ JOYLARIDA TURIZM XIZMATLARI SAMARADORLIGINI OSHIRISH</b> <i>Xalimov Shaxboz Xalimovich</i>	136

## “O‘ZBEKISTON SUG‘URTA BOZORI” JURNALI TAHRIR KENGASHI A‘ZOLARI

1. Teshabayev To‘lqin Zakirovich (Kengash raisi. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti rektori, i.f.d. prof.).
2. Fayziyev Orifjon Olimovich (Kengash raisi o‘rinbosari, Istiqbolli loyihalar milliy agentligi direktor o‘rinbosari).
3. Azimov Rustam Sadikovich (O‘zbekinvest eksport-import sug‘urta kompaniyasi AJ Bosh direktori, i.f.d. prof.).
4. Mehmonov Sultonali Umaraliyevich (Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti prorektori, i.f.d., prof.).
5. Abduraxmonova Gulnora Qalandarovna (Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti prorektori, i.f.d. prof.).
6. Xudoyqulov Sadirdin Karimovich (TDIU huzuridagi “O‘zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishning ilmiy asoslari va muammolari” ilmiy tadqiqot markazi direktori).
7. Xalilov Oybek Nasirovich (O‘zbekiston sug‘urta bozori professional ishtirokchilari Uyushmasi Kengash raisi).
8. Qo‘ldoshev Qamariddin Mansurovich (TDIU “Sug‘urta ishi” kafedrasida professori, i.f.d., Bosh muharrir).
9. Zaynalov Jahongir Rasulovich (Samarqand iqtisodiyot va servis instituti “Moliya” kafedrasida mudiri, i.f.d. prof.).
10. Shennayev Xo‘jayor Musurmanovich (TDIU “Sug‘urta ishi” kafedrasida mudiri, DSc, prof.).
11. Boyev Habibullo Ismoilovich (TDIU “Soliq va soliqqa tortish” kafedrasida professori, i.f.d.).
12. Nurullayev Abdulaziz Sirojiddinovich (TDIU “Sug‘urta ishi” kafedrasida dotsenti, i.f.d.).
13. Merident Randles (FSA, MAAA. Prinsipal & Consulting Actuary. Senior Consultant, UNDP-Milliman Global Actuarial Initiative).
14. Ong Xie (FIA, FSAS. Program Manager, UNDP-Milliman Global Actuarial Initiative. Pronouns: She/Her).
15. Yadgarov Akram Akbarovich (TDIU “Yashil iqtisodiyot” kafedrasida professori, i.f.d.).
16. Yuldashev Obiddin Toshmurzayevich (TDIU magistratura dekan muovini, i.f.d.).
17. Maxmudov Akbar Abduxamidovich (Toshkent ijtimoiy innovatsiya universiteti rektori, PhD, dotsent).
18. Axrorov Zarif Oripovich (TDIU Samarqand filiali “Moliya, soliq va bank ishi” kafedrasida mudiri, i.f.d., dotsent).
19. Qurbonov Xayrulla Abdurasulovich (TDIU Xalqaro va milliy reytinglar bilan ishlash bo‘limi boshlig‘i, i.f.n. dots.).
20. Raxmatullayev Botirjon Abduxamidovich (Toshkent xalqaro moliyaviy boshqaruv va texnologiyalar universiteti. Akademik faoliyat bo‘yicha prorektor PhD, dotsent).
21. Musaxonzoda Ikromjon Sobirxon o‘g‘li (TMC instituti “Milliy ta‘lim yo‘nalishlari akademik faoliyat va ilmiy ishlar” bo‘yicha prorektor, PhD).
22. Hasanov Xayrulla Nasrullayevich (TDIU Besh tashabbus markazi bo‘lim boshlig‘i, PhD).
23. Kenjayev Ilxom G‘iyozovich (TDIU magistratura dekan muovini, PhD, dots.).
24. Imomov Hamdilla Hamdamovich (TDIU “Korporativ moliya va qimmatli qog‘ozlar” kafedrasida professor v.b., i.f.n.).
25. Baratova Dinara Alisherovna (TDIU “Sug‘urta ishi” kafedrasida dotsenti, PhD. Tahririyat kengashi kotibi).
26. Agzamov Avazxon Talgatovich (TDIU “Soliq va soliqqa tortish” kafedrasida professori, PhD).
27. Nomozova Qumri Isoyevna (Bank moliya akademiyasi dotsenti, PhD).
28. Xamdamiyev Shoh-Jaxon Raxmat o‘g‘li (TDIU “Korporativ moliya va qimmatli qog‘ozlar” kafedrasida dotsenti, PhD).
29. Maxmudov Samariddin Baxriddinovich (“Ma‘mun” universiteti “Iqtisodiyot” kafedrasida dotsenti, PhD).
30. Abduturapova Dildora Farxodjon qizi (“Ilmiy tadqiqot faoliyatini tashkil etish” bo‘limi bosh mutaxassisi, PhD).
31. Abdusattarova Dildora Baxodirovna (TDIU “Soliq va soliqqa tortish kafedrasida” dotsenti).
32. Nosirov Jasur Tursunpulotovich (Toshkent xalqaro moliyaviy boshqaruv va texnologiyalar universiteti “Akademik faoliyat va registrator” departamenti rahbari, PhD, dotsent).
33. Adilova Gulnur Jorabayevna (TDIU “Sug‘urta ishi” kafedrasida dotsenti, PhD.).
34. Malikova Dilrabo Mo‘minovna, (TDIU Samarqand filiali "Moliya, soliq va bank ishi" kafedrasida dotsenti, PhD).
35. Bobomurotova Manzura Panji qizi (TDIU “Soliq va soliqqa tortish” kafedrasida assistenti, PhD).



## RAQAMLI TA'LIM TEXNOLOGIYALARI ORQALI INDIVIDUAL SPORTCHILARNI TAYYORLASH TIZIMI BOSHQARUVI IQTISODIY SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING KONSEPTUAL ASOSLARI TAHLILI

Junaydullayev Mels Asliddin o'g'li

Buxoro davlat universiteti, "Sport faoliyati" kafedrasida dotsenti (PhD)

Email: [melsjunadullayev@gmail.com](mailto:melsjunadullayev@gmail.com)

**Annotatsiya:** Maqolada individual sportchilarni tayyorlash tizimi boshqaruviga raqamli ta'lim texnologiyalarini joriy etish asosida tizim boshqaruvining iqtisodiy samaradorligini oshirishga qaratilgan konseptual yondashuvlar tahlil qilinib, ularning O'zbekiston sharoitida amal qilish xususiyatlari aniqlanib, ilmiy nazariyalardan foydalanish imkoniyatlariga baho berilgan.

**Kalit so'zlar:** menejment, sport menejmenti, individual sportchilarni tayyorlash tizimi boshqaruv, boshqaruv samaradorligi, tizimli boshqaruv, raqamli boshqaruv, boshqaruv transformatsiyasi.

**Abstract:** The article analyzes conceptual approaches aimed at increasing the economic efficiency of system management based on the introduction of digital educational technologies into the management of the individual athlete training system, identifies the features of their implementation in the conditions of Uzbekistan, and assesses the possibilities of using scientific theories.

**Keywords:** management, sports management, management of the individual athlete training system, management efficiency, systemic management, digital management, management transformation.

**Абстрактный:** В статье анализируются концептуальные подходы, направленные на повышение экономической эффективности управления системой на основе внедрения цифровых образовательных технологий в управление системой индивидуальной подготовки спортсменов, выявляются особенности их реализации в условиях Узбекистана и оцениваются возможности применения научных теорий.

**Ключевые слова:** управление, спортивное управление, управление системой индивидуальной подготовки спортсменов, эффективность управления, системное управление, цифровое управление, трансформация управления.

### Kirish (Введение/Introduction).

Zamonaviy sport munosabatlari, jumladan, sport tizimida individual sportchilarning global darajadagi yuqori nufuzli tadbirlari va musobaqalarida samarali ishtirokini ta'minlanishida sportchilarning faqatgina jismoniy tayyorgarligi emas, balki, individual sportchining funksional, psixologik va aqliy-intellektual imkoniyatlaridan bir vaqtning o'zida o'zaro mutanosiblikda foydalanish va ularni o'zaro muvofiqlashgan tartibda rivojlantirishga bo'lgan zaruriyat ortib bormoqda. Mazkur vaziyatning tobora global darajada individual sportchilarni tayyorlash tizimini boshqarish amaliyotini takomillashtirishdagi ahamiyati ortib borishi sharoitida mazkur yo'nalishdagi ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirish zaruriyati tobora kuchayib, O'zbekiston sharoitida ham bu turdagi ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirilishini taqozo etmoqda.

Umumiy holatda aytish mumkinki, individual sportchilarni tayyorlash tizimini boshqarish jarayonining o'ziga xosligi mazkur amaliyotning ma'lum bir standartlar tizimiga muvofiqlashtirilgan holatda emas, balki, har bir individual sportchining shaxsiy qobiliyatlari, genetik salohiyati, fiziologik va ruhiy jihatdan tayyorgarlik darajasi va tashqi muhit omillarining salbiy ta'sir doiralarini kamaytirishga qaratilganligi bilan xarakterlanadi. Bu esa turli iqtisodiy tizimlar, jumladan, bugungi O'zbekiston sharoitida individual sportchilarni tayyorlash tizimini boshqarishda yuqori darajadagi moslashuvchanlikka ega bo'lgan boshqaruv amaliyotini shakllantirish imkonini beruvchi dinamik yondashuvlardan foydalanish imkoniyatlarini tadqiq etish zaruriyatini oshiradi. Shu sababli biz bugungi kunda individual sportchilarni tayyorlash tizimini boshqarish amaliyotida keng foydalanilayotgan ilmiy yondashuvlarni tizimli tahlil qilish asosida O'zbekiston amaliyotini tubdan takomillashtirish va rivojlantirishga qaratilgan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalarni ishlab chiqishni lozim topdik.

### Adabiyotlar tahlili (Обзор литературы/Literature review).

Iqtisodiy adabiyotda sportchilarni tayyorlash tizimini boshqarish amaliyotining o'ziga xos xususiyatlari, tamoyillari, shakllari, uning

tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlari, unga bag'ishlangan ilmiy-konseptsiyalar J. March, P. Blau, Ch. Barnard, A. Etzioni, R.N. Lussiyer, E. Ekstin kabi uzoq xorijlik olimlarning ilmiy tadqiqot ishlarida o'z aksini topadi.

Yaqin xorijlik R.K. Xayrullin, A.N. Popov, V. Pudich, G.R. Latfullin, S.A. Shulmin, S.S. Filippov kabi olimlarning ilmiy asarlarida sportchilarni tayyorlash tizimini boshqarishda davlat ishtirokini optimallashtirish, ilg'or xorij tajribasidan mamlakat amaliyotida ijodiy foydalanish imkoniyatlari, hududiy yondashuv asosida sport yo'nalishlari bo'yicha ixtisoslashuvni amalga oshirishning ustuvor yo'nalirlari tadqiq etilgan.

Maxalliy iqtisodchi olimlardan K.Sh. Ziyadullayev, B. Maxmudov, M.R. Boltaboyev, Sh.F. Sultonov, A.A. Tillaqodjayev[1] kabilar tomonidan O'zbekistonda sportchilarni tayyorlash tizimini boshqarish amaliyotining shakllanishi va uni rivojlanishining milliy xususiyatlari, sohani takomillashtirishning ustuvor yo'nalishlari, umumiy holatdagi sportchilarni tayyorlash tizimini boshqarishni amal qilishining iqtisodiy mexanizmi kabi masalalar o'rganilgan.

O'zbekistonda bozor iqtisodiy munosabatlarini liberallashtirish sharoitida individual sportchilarni tayyorlash tizimini boshqarishda raqamli ta'lim texnologiyalaridan foydalanishning samarali usullari, bu turdagi boshqaruvni amalga oshirishning iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish, raqamli ta'lim texnologiyalari orqali individual sportchilarni tayyorlash tizimini boshqarishning zamonaviy yondashuvlarini amaliyotga joriy qilish borasidagi ilmiy tadqiqotlar mahalliy iqtisodchi olimlar tomonidan kompleks va tizimli tartibda tadqiq etilmagan hisoblanadi. Bu esa mazkur tadqiqot mavzusini tanlanishiga asos sifatida xizmat qiladi.

**Tadqiqot metodologiyasini amalga oshirishda foydalanilgan usullar (Methods/Методы)**

Tadqiqot jarayonida induksiya va deduksiya, tizimli-nazariy tahlil, mantiqiylik va tarixiylik, analiz va sintez, qiyosiy va selektiv tanlab tadqiq qilish, guruhlash, monografik tahlil usullari qo'llanilgan.

#### Tahlil va natijalar (Анализ и результаты. Analysis and results).

Raqamli ta'lim texnologiyalarining turlari ularning individual sportchilarni tayyorlash tizimini boshqarish amaliyotiga joriy etish imkoniyati va erishilishi mumkin bo'lgan iqtisodiy samaradorlik holatini avvaldan belgilash imkoniyatini beradi. Jumladan, iqtisodiy fanidagi individual sportchilarni tayyorlash tizimini boshqarishda raqamli texnologiyalardan foydalanish usullarini tadqiq etish bo'yicha uzoq xorijlik T. Senkal[6], H. Jiang[7], G.G. Salman[8], S. Akkaya[9] V. Chai[10], Ch. Li[11] kabi iqtisodchi olimlarning ilmiy izlanishlari natijalarini tizimli tartibda tahlil qilish asosida raqamli ta'lim texnologiyalaridan foydalanishning usullarini ma'lumotlarni yig'ish va monitoring qilish, ma'lumotlarga asoslangan tahlil, onlayn ta'lim v trening platformalari, virtual va qo'shimcha kengaytirilgan reallik, biomexanik tahlil, sun'iy intellektga asoslangan individuallashtirish, hamda raqamli texnologiyalarga asoslangan boshqaruv usullari bir biridan o'zaro farqlanishi aniqlashga erishdik.

Individual sportchilarni tayyorlash tizimini boshqarishning ilmiy-nazariy asoslarining turli guruhlari amal qilishi bilan bog'liq bo'lgan xususiyatlarini tadqiq etish orqali ularning 1-jadvalda keltirib o'tilgan ijobiy va salbiy jihatlarini aniqlab, quyidagi umumlashgan xulosalarni shakllantirishga erishdik:

birinchidan, har bir nazariy guruh individual sportchilarni tayyorlash tizimini boshqarish amaliyotini muayyan jihatlarini chuqur yoritib berishga qaratilgan hisoblanadi;

ikkinchidan, individual sportchilarni tayyorlash tizimini boshqarishda hech bir ilmiy nazariy guruh mukammaal bo'lmay, boshqaruv samaradorligiga komplekslik jihatidan erishish imkoniyatini bermaydi;

uchinchidan, individual sportchilarni tayyorlash tizimini boshqarish samaradorligini oshirishda bugungi kunda innovatsion-integrativ yondashuv istiqbolli nazariyalarni o'zid aks ettirishi hisobiga, bu turdagi yondashuvlar ustuvor darajada rivojlanayotganligi bilan xarakterlanadi;

#### 1-jadval

##### Individual sportchilarni tayyorlash tizimini boshqarishning nazariy asoslari guruhlarning afzalliklari va kamchiliklari<sup>1</sup>

№	Nazariy guruh	Salbiy jihatlar	Yutuqlari
1	Tizimli va kibernetik yondashuv	Inson omili bilan bog'liq holatlar inobatga olinmagan	Individual sportchilarni tayyorlash tizimini boshqarish va uni modellashtirish imkoniyati yuqori
2	Pedagogik-psixologik yondashuv	Rivojlanishning maqsadli parametrlari bo'yicha prognozlashtirish imkoniyatlari cheklangan	Sportchini individual tartibda rivojlantirish imkoniyatlari yuqori
3	Biomexanik-fiziologik yondashuv	Individual sportchilarni tayyorlash tizimini boshqarish nuqtai-nazaridan kompleks ahamiyat kasb etmaydi	Sportchining jismoniy-fiziologik tayyorgarlik holatini yaxshilash bo'yicha chuqur ilmiy asoslangan yondashuvlarga tayanadi
4	Innovatsion-integrativ yondashuv	Bunday tizim boshqaruvini shakllantirish murakkab jarayon hisoblanadi	Bu turdagi boshqaruv amaliyotining shakllantirilishi hisobiga universal boshqaruvga erishiladi

to'rtinchidan, O'zbekiston sharoitida individual sportchilarni tayyorlash tizimini boshqarishning nazariy asoslaridan foydalanish imkoniyatlari tahlili ulardan mamlakatda samarali foydalanilishi ilmiy yondashuvning kuchayishi, individual sportchilarni tayyorlash tizimi amal qilishi va uni boshqarishning samaradorligini oshirish hisobiga global

darajadagi nufuzli musobaqalarda yuqori natijalarga erishish imkoniyatini beradi.

Xulosa qilib aytganda bugungi zamonaviy tendensiyalar O'zbekistonda individual sportchilarni tayyorlash tizimiga raqamli ta'lim texnologiyalarini chuqur integratsiyalashuvini taqozo etmoqda. Bu esa mamlakatda raqamli ta'lim texnologiyalarini individual sportchilarni tayyorlash tizimi boshqaruvida qo'llashning milliy amaliyotiga xos bo'lgan nazariy-uslubiy yondashuvlarni chuqur tahlil qilgan holda, yuqori natijalarga erishish imkonini beruvchi yondashuvlardan o'zaro mutanosiblikda foydalanish zaruriyatini yanda oshiradi.

Iqtisodiy fanidagi tadqiqotlarda bugungi kunda individual sportchilarni tayyorlash tizimini boshqarishda sun'iy intellekt (AI), Big-Data tahlili, internet ashyolari (IoT), virtual (VR) va qo'shimcha kengaytirilgan (AR) reallik, turli raqamli platformalar va ijtimoiy tarmoqlar, blokcheyn, robotlashtirish va avtomatlashtirish kabi raqamli ta'lim texnologiyalaridan foydalanish amaliyoti global darajada keng rivojlanish vektoriga ega bo'layotganligini ko'rsatadi.

#### 2-jadval

##### Individual sportchilarni tayyorlash tizimini boshqarishda foydalaniladigan raqamli ta'lim texnologiyalarining guruhlanishi<sup>2</sup>

№	Raqamli ta'lim texnologiyalari guruhi	Raqamli ta'lim texnologiyasidan foydalanish xususiyati	Raqamli ta'lim texnologiyasi (asl nomlanishi keltirilgan)
1	Monitoring texnologiyalari	Sportchining real vaqtidagi ruhiy, fiziologik, biomexanik va taktik tayyorgarligini monitoring qilish imkonini beradi	Wearables
2	Tahliliy texnologiyalar	Katta hajmdagi ma'lumotlar bazasini chuqur tahlil qilish asosida individual sportchilarni tayyorlash tizimi boshqaruvini takomillashtirishga erishiladi	Big Data Analytics
3	Intellektual texnologiyalar	Individual sportchilarni tayyorlash tizimini boshqarish jarayonidagi qarorlarni qabul qilish optimalligini oshiradi	AI (Artificial Intelligence) + IoT (Internet of Things)
4	Vizualizatsion simulyator texnologiyalari	Sportchilar uchun vizuallashtirilgan immersiv muhitni yaratish asosida ularning taktik tayyorgarligini oshiriladi	VR (Virtual Reality) / AR (Augmented Reality)
5	Boshqaruv texnologiyalari	Raqamlashtirilgan ta'lim platformalari asosida sportchilarni tayyorlash tizimi boshqariladi	LMS (Learning Management System)

Shu o'rinda raqamli ta'lim texnologiyalaridan individual sportchilarni tayyorlash tizimini boshqarishda qo'llanilishi hisobiga sportchilarni tayyorlashdagi ta'lim va sport mashg'ulotlarini tashkil etish bilan bog'liq bo'lgan dasturlarni sportchining individual darajadagi fiziologik, ruhiy, texnik va biomexanik holatiga mos tartibda amalga oshirish imkoniyatlari ortib borayotganligi ilmiy jihatdan isbotlangan.

Shu bilan birgalikda, talqinotlarimiz individual sportchilarni tayyorlash tizimini boshqarishda foydalaniladigan raqamli ta'lim texnologiyalarini ularning xususiyatlaridan kelib chiqib, monitoring, tahliliy, intellektual, vizualizatsiya va boshqaruv kabi guruhlarga ajratish (2-jadvalga qarang) imkonini berdi. Bu orqali individual sportchilarni tayyorlash tizimini boshqarishda raqamli ta'lim texnologiyalaridan

<sup>1</sup> Muallif tomonidan tuzilgan

<sup>2</sup> Muallif tomonidan tuzilgan

foydalanishning raqamli ekotizimini izohlashga erishish mumkin bo'ladi. Shu o'rinda ta'kidlash joizki, mamlakatda individual sportchilarni tayyorlash tizimi boshqaruviga raqamli ta'lim texnologiyalarini joriy etishda investitsion imkoniyatlarning cheklanganligini inobatga olib, nisbatan arzonroq narxlardagi yuqori iqtisodiy samaradorlikka erishish imkoniyatini beruvchi texnologiyalardan foydalanishga ustuvorlik qarotirishni maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

O'tkazilgan tadqiqotlar asosida O'zbekiston individual sportchilarini tayyorlash tizimini boshqarish amaliyotiga raqamli ta'lim texnologiyalarini joriy etish imkoniyatlarini 3-jadvalda keltirilgan tartibda ekanligini aniqlashga erishdik. O'tkazgan tahlillarimiz asosida bugungi O'zbekistondagi individual sportchilarni tayyorlash tizimini boshqarish amaliyotiga sensor texnologiyalar (Wearable Devices) bilan video va rasm (Capture Motion) tahlili kabi raqamli ta'lim texnologiyalarini joriy etish imkoniyatlari boshqa turdagilariga nisbatan yuqori ekanligini ko'rsatdi.

3-jadval

**O'zbekiston individual sportchilarini tayyorlash tizimi boshqaruviga raqamli ta'lim texnologiyalarini joriy etish imkoniyatlari<sup>3</sup>**

№	Raqamli texnologiya turi	Joriylash imkoniyati	Imkoniyatning izohlanishi	Erishiladigan samaradorlik
1	Sensor texnologiyalar (Wearable Devices)	Yuqori darajada	Professional sport sohasida qo'llanilishini yanada kengaytirish va quyi bo'g'inlarga joriy etish	Keskin darajadagi yuqori samara
2	Video va rasm (Capture Motion) tahlili	Yuqori darajada	Investitsion talab hajmining pastligi, qo'llashning nisbatan osonligi	Yuqori darajadagi samaradorlik
3	LMS ta'lim platformalari	O'rta darajada	Ta'lim bilan sport mashg'ulotlarini o'tash o'rtasida o'zaro integratsiyalash imkoni bor	O'rta darajadagi samara
4	Sun'iy intellekt (AI) texnologiyalari	O'rta darajada	IT sohasini rivojlanishi bilan bog'liq	Keskin darajadagi yuqori samara
5	VR / AR simulyator texnologiyalari	Quyi-o'rta darajada	Narxi bo'yicha qimmat texnologik ta'minot talab qilinadi	Yuqori darajadagi samaradorlik
6	Big Data tahliliy texnologiyalari	Quyi-o'rta darajada	Katta hajmdagi ma'lumotlar bazasini shakllantirish va uni avtomatik tahliliy dasturlar bilan integratsiyalash zarur	Keskin darajadagi yuqori samara

Demak, yuqorida keltirilgan O'zbekiston individual sportchilarini tayyorlash tizimini boshqarilishida raqamli ta'lim texnologiyalarini joriylashning strategik ustuvorliklarini amalga oshirish bosqichlari tarkibiy jihatdan "Capture Motion+LMS → Wearable Devices → Big Data + AI → VR / AR" raqamli ta'lim texnologiyalari turlari kombinatsion tuzilishi shaklida innovatsion tizim boshqaruvini shakllantirish imkonini beradi. Ishlab chiqilgan strategik bosqichlar

asosida mamlakatdagi individual sportchilarni tayyorlash tizimini boshqarishda raqamli ta'lim texnologiyalarini joriylanishi hisobiga sohadagi samaradorlikni 20-35 foizgacha oshirish imkoniyatiga erishish mumkinligi "N3XT Sports" global tashkilot tadqiqotlarida ilmiy va amaliy jihatdan isbotlangan hisoblanadi.

O'rganishlaarimiz asosida jamoaviy, individual va ommaviy shakldagi sportchilarni tayyorlash tizimini boshqarishda raqamli ta'lim texnologiyalaridan foydalanish amaliyotining o'zaro farqli jihatlari tizim boshqaruv va unda raqamli ta'lim texnologiyalaridan foydalanishning maqsadi, texnologik ta'minoti turi, qo'llanilayotgan yondashuv, nazoratni amalga oshirish va erishiladigan samaradorlikni ta'minlash yo'nalishi kabi omillar orqali namoyon bo'lishini aniqlashga erishdik. Sportchilarni tayyorlash tizimini boshqarishning jamoaviy, individual va ommaviy shakllari bo'yicha raqamli ta'lim texnologiyalaridan foydalanish amaliyotining biz tomonimizdan aniqlangan o'zaro farqli jihatlari bo'yicha ma'lumotlar 4-jadvalda keltirib o'tildi.

4-jadval

**Sportchilarni tayyorlash tizimini boshqarishning jamoaviy, individual va ommaviy shakllarida raqamli ta'lim texnologiyalaridan foydalanishning o'zaro farqli jihatlari<sup>4</sup>**

№	Ko'rsatkichlar	Jamoaviy sport	Individual sport	Ommaviy sport
1	Maqsadi	Jamoaviy yuqori natijaga erishish	Sportchining shaxsiy natijasini oshirish	Aholi salomatligiga erishish
2	Foydalaniladigan raqamli ta'lim texnologiyalari	Capture Motions + GPS	Wearable Devices + AI	Mobil ilovalar
3	Yondashuv	Jamoaviy yondashuvga asoslangan	Individual yondashuvga asoslangan	Universal yondashuvga asoslangan
4	Nazorat shakli	Jamoaviy nazorat	Aniq yo'nalishdagi shaxsiy monitoring	Umumiy salomatlik statistikasi
5	Samaradorlikka erishish yo'nalishi	To'g'ri taktikani shakllantirish	Motivatsiyani to'g'ri belgilash	Personal darajadagi optimizatsiya

**Xulosa va takliflar (conclusion and suggestions / выводы и предложения)**

Bizning fikrimizcha, sportchilarni tayyorlash tizimini boshqarishning jamoaviy, individual va ommaviy shakllari bo'yicha raqamli ta'lim texnologiyalaridan foydalanish amaliyoti hisobiga boshqaruv transformatsiyasi jarayoni vujudga kelib, buning pirovardida har bir shakl bo'yicha quyidagi natijalarga erishish mumkin bo'ladi:

jamoaviy sportchilarni tayyorlash tizimini boshqarishda raqamli ta'lim texnologiyalaridan foydalanilishi hisobiga boshqaruvning jamoaviy sportdagi koordinatsiyalashuvi va strategik ustuvorligini ta'minlash samaradorligi ortadi;

individual sportchilarni tayyorlash tizimi boshqaruviga raqamli ta'lim texnologiyalarini joriy etilishi sportchining shaxsiy ko'rsatkichlarini rivojlanishini sezilarli darajada oshirish imkoniyatini yaratadi;

sportchilarni tayyorlash tizimini boshqarishning ommaviy shaklida raqamli ta'lim texnologiyalaridan foydalanish hisobiga aholining turli musobaqalardagi ishtiroki samaradorligini oshirish bilan birgalikda, belgilangan salomatlik maqsadlariga erishish bo'yicha motivatsion harakat nuqtalarini to'g'ri belgilash imkoniyati kengayadi;

sportchilarni tayyorlash tizimini boshqarishning jamoaviy, individual va ommaviy shakllari kesimida raqamli ta'lim texnologiyalarning joriylanishi hisobiga umumiy holatdagi milliy sport menejmenti tizimining samaradorligini keng ko'lamli ma'lumotlar tahlili asosida rivojlanish ustuvorliklarini to'g'ri belgilanishi hisobiga sezilarli darajada oshirish imkoniyatiga erishilib, mamlakat sportini global darajada rivojlantirish bilan birgalikda, aholining salomatlik ko'rsatkichlarini va ularning sportga bo'lgan qiziqishini yanada oshirishga erishiladi.

<sup>3</sup> Muallif tomonidan tuzilgan

<sup>4</sup> Muallif tomonidan tuzilgan

**Foydalanilgan adabiyotlar (Литературы/ References):**

1. Ziyadullayev K.Sh., Abdiyev N.A., Kurbanbayev I.R. Obespecheniye adekvatnosti finansovogo mexanizma v upravlenii fizicheskoy kulturoy i sportom. Aktualnye problemy gumanitarnyx i sotsialno-ekonomicheskix nauk, № 11 (5), 2017. s. 82-84.
2. Maxmudov B., Ziyadullayev K., Narziyev J., Ibragimov A., Narimonov N. Osobennosti formirovaniya rynka sportivnykh uslug pri stanovlenii sportivnoy industrii v Uzbekistane. Fan-sportga, (1), 2020. s. 69-74
3. Boltabayev M.R., Sultonov Sh.F., Ziyadullayev K.Sh. O'zbekistonda jismoniy tarbiya va sport sohasi boshqaruvi tizimini takmillashtirishda sport menejmentini rivojlantirish modelini yaratish. Fan-sportga (5) 2020. 2-6 betlar
4. Tillyaxodjayev A.A. The importance of marketing communications in the development of kind of sports in Uzbekistan. South Asian Journal of Marketing & Management Research, No. 10 (12), 2020. pp. 18-29
5. Santomier J. Digital transformation: The global sport industry. In Reference module in social sciences. Elsevier. 2024. – pp. 1-7 DOI: 10.1016/B978-0-443-13701-3.00209-7
6. Senkal T., Demir A. The Relationship Between Digital Transformation and Performance Management in Sports Organizations. International Journal of Innovative Science and Research Technology, Vol. 10, Issue 7, July, 2025. – pp. 1348-1356
7. Jiang H., Liang X., Li S. Analysis of the Development and Application of Digital Twin Technology Empowering Smart Sports. New Sports, Vol. 18, 2023. – pp. 29-31
8. Salman G.G. Use of Digitalization and Social Media in Sports Branding. The Journal of Academic Social Science Studies, Vol. 13, No. 79, 2022. – pp. 451-467
9. Akkaya C. Digital Culture and Esports in a Digitalized Society. Gaziantep University Journal of Social Sciences, Vol. 22 (3), 2023. – pp. 719-735.
10. Chai W., Wang W., Shi H., et al. The Intrinsic Mechanism and Implementation Path of Digital Economy Driving the Supply and Demand Adaptation of Sports Industry. Journal of Shanghai University of Sport, Vol. 47 (10), 2023. – pp. 88-98.
11. Li Ch., Li D., Huang Ch. Innovations in Sports Industry: Trends and Transformations. Psychology of Sport & Exercise, Vol. 75, 2024. – pp. 1-7. DOI: 10.1016/j.psychsport.2024.112416
12. Qo'ldoshev Qamariddin Mansurovich. (2025). Sug'urta xizmatlariga bo'lgan iste'mol talabini oshirishning innovatsion yo'llari. Insurance market of Uzbekistan, 2(6), 4–8. [https://doi.org/10.55439/INS/vol2\\_iss6/336](https://doi.org/10.55439/INS/vol2_iss6/336)